



OILA QONUNCHILIGIDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYALASHNITAKOMILLASHTIRISH

Kuldashev Nuriddin Abduganiyevich,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
“Fuqaroviylar” kafedrasi boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13369662>

ARTICLE INFO

Received: 10th August 2024
Accepted: 12th August 2024
Published: 14 th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi. Xususan, Asosiy Qonunimizning 78-moddasida “Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir”, degan norma belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston mustaqillikga erishgach, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mintaqasida birinchilardan bo'lib “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyani 1992 yil 9 dekabr kuni ratifikatsiya qildi. Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar asosiy huquq va erkinliklarini belgilovchi hujjat – bu BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan va 1990 yil 2 sentyabrda kuchga kirgan “Bola huquqlari to'g'risida”gi konvensiyadir. Mazkur hujjat tarixdagi eng ko'p ratifikatsiya qilingan hujjatlardan biridir. Ushbu xalqaro Konvensyaning asosiy g'oyasi – bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash bo'lsa, uning qoidalari bolalar huquqlarini ta'minlashi kerak bo'lgan 4 ta asosiy talabga jamlangan. Omon qolish, rivojlanish, himoya qilish va jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash shular jumlasidan. O'zbekiston Respublikasi “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyani ratifikatsiya qilish bilangina cheklanmadidi. Hozirgi kunga qadar “Bola huquqlari to'g'risida”gi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli fakultativ protokol (Nyu-York, 2000 yil 25 may) va bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli fakultativ protokolni (Nyu-York, 2000 yil 25 may) ham ratifikatsiya qildi.

Bola huquqlari – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'iya nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinlikdir, xalqaro huquqda 18 yoshga yetmaganlarning barchasi bola deb tan olinadi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunga kelib dunyo aholisi 8 milliarddan oshiqroq bo'lib, shundan 34% ni 14 yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagagi bolalar tashkil qiladi va 2023-yil yanvar oyi holatida 447 586 ta bola tug'ilgan [1].

Ta'kidlash kerakki, milliy huquq tizimimizning barcha sohalarida bola huquqlarini himoyalashga qaratilgan normalar mavjud va ularni takomillashtirishga qaratilgan huquqiy islohotlar tanaffussiz amalga oshirilib borilmoqda. Xususan, bola huquqlarini xususiy-huquqiy himoyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, bolaning shaxsiy va mulkiy huquq hamda erkinliklari ustuvor hisoblanadi.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ham bolaning shaxsiy huquq hamda erkinliklari bilan bog'liq bo'lib, bular quyidagilardan iborat:
bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;
bolaning kamshitilishiga yo'l qo'ymaslik;
bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;
bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;
bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash va boshqalardir.

Ma'lumki, bolaning shaxsiy va mulkiy huquq hamda erkinliklari himoya qilishda Oila va Fuqarolik qonunchiligi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida bola huquqlariga oid bir qancha normalar mavjud bo'lib, mazkur huquqlarni amalga oshirish bolaning yoshi va sog'lig'iga bog'liq holda uning ota-onasi yoki o'rnini bosuvchi shaxslar, shuningdek bevosa bolaning o'zi tomonidan ham amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Muhokamaga tashlaydigan norma Oila kodeksining 15-mavzusi bilan bog'liq. Ma'lumki, 2019 yil avgust oyiga qadar nikoh yoshi yigitlar uchun 18 yosh va qizlar uchun 17 yosh qilib belgilangan edi. Biroq, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 28 avgustdag'i O'RQ-558-sonli Qonuni bilan qizlar uchun ham nikoh yoshi 18 yosh qilib belgilandi va bu o'zgartirish qonunan to'g'ri bo'ldi. Zero, 18 yoshga to'lmagan shaxs xalqaro hujjatlarga ko'ra ham milliy qonunchiligmizga ko'ra ham bola hisoblanadi. Biroq, qonun chiqaruvchi tomonidan OKning 15-modda ikkinchi qismi bilan bog'liq normaning o'zgarishsiz qoldirilgani bizning nazarimizda bahsli ko'rindi. Ya'ni, OKning 15-modda ikkinchi qismidagi "Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarining iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin"ligi haqidagi normaning o'zgarishsiz qolganligidir [2]. Fikrimizga ko'ra, milliy qonunchiligmizda bolaning roziligi bilan nikohga kirishga ruxsat berish tartibining mavjudligi bola huquqlari to'g'isidagi qonun hujjatlariga muvofiq emas.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 28-moddasida bolaning to'la muomala layoqatiga ega bo'lish tartibi belgilangan. Unga ko'ra: "O'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, u to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi mumkin" [3]. Yuridik adabiyotlarda jismoniy shaxsning muomala layoqati deganda, shaxsning o'z harakatlari bilan huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati ekanligi aytildi. Ya'ni, voyaga yetmagan shaxsni nafaqat huquqlarda, balki majburiyatlarda ham voyaga yetganlar bilan tenglashtirish hisoblandi. Bu esa, bolaning o'z zimmasiga majburiyatlar olishini, bu majburiyatlarni bajarishi majburiyligini, majburiyatlarini bajarmaganda fuqaroviyy-huquqiy javobgar bo'lishini bola qanchalik his qiladi va anglaydi, degan bahsli savolni vujudga keltiradi. Fikrimizcha, bolaga majburiyatlar yuklash, mayli bu majburiyatlar mulkiy xarakter kasb etsin bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shu sababli Fuqarolik kodeksidagi mazkur normani o'ylab ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Bugun bolalar zo'rovonligiga qarshi ko'rash bo'yicha xalqaro va milliy darajada amaliy va huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, milliy qonunchiligmizga (Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga) tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi [4]. Mazkur qonun bilan bolaning mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish huquqbazarliklarning yangi turi sifatida belgilandi. Biroq, bugungi kunda huquqni qo'llash va sud amaliyotida bolalarning mulkiy zo'ravonligi bilan bog'liq huquqbazarliklarni malakalashda tushunmovchiliklar va turli talqinlar mavjudligi kuzatilmoque. Shu maqsadda,

bolalarning mulkiy munosabatlari bilan bog'liq fuqarolik qonunchiligi normalarini takomillashtirilishi mazkur nizolarning huquqbazarlik yoki fuqaroviy nizo bo'lishi masalasida aniqlik kiritilishiga xizmat qiladi.

Bola huquqlarini xususiy-huquqiy himoyalashga oid yana bir masala. Milliy qonunchiligidizda ba'zan mazkur sub'ektlarni "voyaga yetmagan shaxs" va ba'zan "bola" deb qo'llanilishi bilan bog'liq normalardir. Shu sabab, milliy qonunchiligidizdagи bola huquqlari bilan bog'liq normalarni tug'ri qo'llash maqsadida "voyaga yetmagan shaxs" yoki "bola" kategoriylarini unifikatsiyalash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda oila va fuqarolik qonunchiligidagi bola huquqlari bilan bog'liq normalarni va uni amalga oshirish bilan bog'liq huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bola huquqlarini xususiy-huquqiy himoyalashni samarali ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://countrymeters.info/ru/World>
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. <https://lex.uz/acts/104720>
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism. <https://lex.uz/acts/111189>
4. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 11.04.2023 yildagi O'RQ-829-son Qonuni <https://lex.uz/docs/6430272>